


II. SANOAT




Viloyat sanoat korxonalarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlarining jadallashishi natijasida 2022 yilning yanvar-sentabr oylarida 7 901,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta'minlanib, ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 2021 yilning tegishli davriga nisbatan 107,5 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida ko'proq qayta ishlash sanoatiga to'g'ri kelib, uning ulushi 93,8 foizni tashkil etdi (2021 yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 110,8 %). Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash ulushi 3,6 foizni (ishlab chiqarish indeksi 117,8 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish ulushi 0,8 foizni (ishlab chiqarish indeksi 96,8 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 1,8 foizni (ishlab chiqarish indeksi 28,0 %) tashkil qildi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi
(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish**
(2022 yilning yanvar-sentabr)

	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>2021 yil yanvar-sentabriga nisbatan ishlab chiqarish indeksi foizda</i>
Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi	7 901,9	107,5
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	138,8	28,0
<i>ulardan:</i>		
tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat	138,8	28,0
Qayta ishlash sanoati	7 416,6	110,8
<i>undan:</i>		
oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	974,7	106,4
ichimliklar ishlab chiqarish	5,3	24,0
to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	2 239,0	107,6
kiyim ishlab chiqarish	289,1	77,0
teri va unga tegishli mahsulotlarni ishlab chiqarish	1,5	70,9
yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	26,5	109,9
qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	27,3	131,8
yozilgan materiallarni nashr etish va aks ettirish	5,1	50,4
kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	45,3	16,4
Farmasevtika mahsulotlarini va preparatlarini ishlab chiqarish	0,2	77,1
rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	233,7	102,3

davomi


	<i>Mlrd. so‘m</i>	<i>2021 yil yanvar- sentabriga nisbatan ishlab chiqarish indeksi foizda</i>
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	8,8	244,8
boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish	1 212,4	91,2
metallurgiya sanoati	91,7	95,1
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	66,8	156,6
elektr uskunalarni ishlab chiqarish	309,1	71,8
kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	9,3	431,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalarni ishlab chiqarish	29,4	85,9
Mebel ishlab chiqarish	98,0	62,3
boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	70,9	86,6
mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	36,8	85,6
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	1 635,7	283,4
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	281,6	117,8
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	64,9	96,8

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarida eng yuqori ulushini ishlab chiqaradigan sanoat korxonlari (93,8 foiz) hissasiga to'g'ri keladi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida sanoat korxonlari tomonidan 7 901,9 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqargan bo'lsa, o'tgan yilning shu davriga nisbatan ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 107,5 foizni tashkil etdi.



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida yuqori ulushini tashkil etgan korxonalar hissasi (foiz hisobida)




Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi

Jizzax viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Jizzax shahri (Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmining 34,7 foiz ulushini), Zafarobod (10,4 %) va G'allaorol (22,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



Hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, foizda





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti
turlarini ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)


	O'lchov birligi	2022 yil yanvar- sentabr	2021 yilning yanvar- sentabriga nisbatan foiz
Ishlab chiqaradigan sanoat			
Paxta xom-ashyoni qayta ishlash	t	98 956,9	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi	t	27 700,4	82,6
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 1 navli	t	9 949,5	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 2 navli	t	2 240,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 3 navli	t	1 674,9	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 4 navli	t	13 580,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 5 navli	t	256,0	-
Paxta chigiti	t	46 747,4	95,1
Momiq	t	3 644,7	121,0
Tozalangan paxta yog'i	t	7 095,0	2,3 m.
Chigitdan olingan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar	t	32 617,0	60,0
Soapstoklar (neytrallash jarayoni mahsuloti)	t	590,3	50,5
Tarkibida yog' yoki hayvon yoki o'simlik mumi bo'lgan moddalarni qayta ishlashning boshqa qoldiqlari va chiqindilari	t	-	-
Yumshoq bug'doy va spel'ta uni	t	43 367,8	91,7
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (ko'p komponentli aralashmalardan tashqari)	t	28 443,0	37,9
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar	t	1 418,0	72,2
Chakana savdo uchun qadoqlanmagan paxtadan yigirilgan bir qavatli ip	t	3 2350,6	100,3

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 865,4 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2021 yilning mos davriga nisbatan 148,5 foizini, uning jami sanoatdagi ulushi 48,9 foizini tashkil etdi.




Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi
(jami iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)

2021 yil yanvar-sentabr



2022 yil yanvar-sentabr



■ **Oziq-ovqat mahsulotlari**

■ **Nooziq-ovqat mahsulotlari**

Shu bilan birga o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan eng yuqori o‘sish sur‘ati viloyatning bir necha tumanlarida kuzatilmoqda. Xususan, G‘allaorol (252,7 %) va Paxtakor (148,5 %), Forish (134,5 %) hamda Sharof Rashidov (166,0 %) tumanlarida yuqori o‘sish kuzatilgan.


2022 yilning 1 oktabr holatiga hududlarning iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida eng yuqori ulushga ega bo‘lgan hududlar G‘allaorol (43,0 %), Jizzax shahri (25,7 %), Paxtakor (7,3 %) va Sharof Rashidov (6,1 %) tumanlari hisoblanadi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilish hajmining eng yuqori ulushi G‘allaorol tumaniga (52,8 %) shuningdek Jizzax shahriga (22,1 %) to‘g‘ri kelmoqda.


Viloyatda oziq-ovqat iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur‘atida eng yuqori ko‘rsatkich Jizzax shahrida (168,8 %), Sharof Rashidov (250,9 %), Paxtakor (201,2 %) tumanlarida qayd etildi.



Hududlarning iste'mol tovarlaridagi ulushi
(foiz hisobida)




2022 yilning yanvar-sentabr oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (14 544,0 ming so'm), Zafarobod (15 821,8 ming so'm), G'allaorol (9 678,4 ming so'm), Do'stlik (8 381,0 ming so'm) hamda Paxtakor (5 462,8 ming so'm) tumanlari o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.




2022 yilning yanvar-sentabr oylarida hududlarda aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish




Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi, viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Mazkur dastur doirasida 2022 yilning yanvar-sentabr oylarida 3 722,2 mlrd. so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilib, 33 976,4 ming AQSH dollari miqdorida mahsulotlar eksport qilindi va 961 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.





2022 yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da




Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 051,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 51,3 foizni tashkil etdi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Doʻstlik (8,4 %) hamda Zafarobod (4,8 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




2022 yil yanvar-sentabr oylarida iste'mol mollari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da



Tumanlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, kichik biznesning jami iste'mol mollari ishlab chiqarishdagi ulushi Do'stlik (49,3 %), Zarbdor (55,6 %) va Arnasoy (56,2 %) tumanlarida nisbatan past ko'rsatkichni qayd etgan.




2022 yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha iste'mol mollari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da



2022 yilning 1 oktabr holatiga viloyatda 3 995 ta faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini bo'lib, ulardan 696 tasi yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalarini hisoblanadi.



Sanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalari, birlikda
(2022 yilning 1 oktabr holatiga)



Hududlar miqyosida olib qaralganida, sanoat tarmog'ida yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahrida (144 ta) va G'allaorol (88 ta) tumanida joylashgan.

Shuningdek, Sharof Rashidov tumanida (72 ta), Zarbdor (63 ta), Forish (38 ta), Do'stlik (32 ta), Paxtakor (35 ta), Zomin (86 ta), Baxmal (41 ta), Arnasoy (20 ta), Mirzacho'l (28 ta) Zafarobod (31 ta) va Yangiobod (18 ta) tumanlarida ham sanoat tarmog'idagi yangi tashkil etilgan korxonalar faoliyat yuritib kelmoqda.